

CHOG‘ISHTIRILAYOTGAN TILLARDA (INGLIZ , RUS VA O‘ZBEK) MAQOLLARNING O‘RGANILISH TARIXI VA TASNIFI

Abdullayeva Munojot Muxtorovna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, katta o‘qituvchi

E mail: mundil1326@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola og‘zaki ijodning eng keng tarqalganligiga qaramasdan hali hanuz ochilmagan qirralari ustida izlanishlar olib borilayotgan janri - maqol tarixi, uning adabiyotshunoslik va tilshunoslik sohasida o‘rganilish tarixi, paremiya va maqolshunoslik sohasida evropa, rus va o‘zbek tilshunos va tadqiqodchilarini olib borgan izlanishlari, maqolshunoslik sohasida yaratgan asarlari sharxi haqida ma‘lumotlar berilgan. Shu bilan birga maqollarning o‘rganish jarayonida, maqollar shu xalq hayoti , ananalari, tarixi, urf-odatlar haqida to‘liq ma‘lumot beruvchi turli shaklga ega bo‘lgan, tarkibida o‘xshatish, antiteza, anafora, alliteratsiya, kinoya, piching kabi bir qancha tasviriy vositalar qo‘llanishi mumkin bo‘lgan jamiyat “parchasi” ning modeli haqidagi qarashlarga ham ega bo‘lish mumkin.

Kalit so‘zlar: maqol, paremiya, frazeologiya, lisoniy manzara, barqaror birikma, maqolshunoslik, A.Teylor, W.Mieder, maqol xususiyatlari.

Аннотация: В этой статье дается информация об истории жанра пословицы, его изучении в области литературоведения и языкознания, исследованиях европейских, русских и узбекских лингвистов и исследователей в области паремии и пословицы, обзоре произведений, созданных в области пословицы. В то же время в процессе изучения пословиц можно также получить представление о модели “фрагмента” общества, в котором пословицы имеют различную форму , которая дает исчерпывающую информацию о жизни, традициях, истории, обычаях этого народа, в котором можно использовать несколько изобразительных средств, таких как аналогии, антитезы, анафоры, аллитерация, ирония, подача.

Ключевые слова: пословица, паремия, фразеология, языковой ландшафт, устойчивое сочетание, пословица, А.Тейлор, В.Мидер, пословица особенности.

Annotation: This article presents the history of proverbs, a genre in which research is being conducted on the still unexplored aspects of oral creativity, the history of its study in the field of literary studies and linguistics, European, Russian and Uzbek linguists and researchers in the field of Paremia and proverbs. Information about their researches, the review of his works in the field of proverbs are given. At the same time, in the process of studying proverbs, proverbs have various forms that provide complete information about the life, traditions, history, and customs of this people, including simile, antithesis, anaphora, alliteration, irony, and alliteration. It is also possible to

have views about the model of a "slice" of society, where several stylistic devices can be used.

Key words: proverb, paremia, phraseology, linguistic landscape, stable combination, proverbs, A. Taylor, W. Mieder, proverb characteristics.

Maqollar ustida izlanishlar olib borilar ekan, albatta, paremiologiya sohasiga murojaat qilmasdan iloj yoq. Olamning paremiologik manzarasi olamning lisoniy manzarasining bir qismidir.

Premalar avloddan avlodga faqat og‘zaki holdagina o‘tib kelganligi, xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lganligi uchun adabiyotshunoslikning o‘rganish obyekti hisoblanadi, chunki ularning aksariyati ko‘pincha she‘riy shaklga o‘xshaydi va ularda o‘xshatish, antiteza, anafora, alliteratsiya, kinoya, piching kabi bir qancha tasviriy vositalar qo‘llanadi. Shu bilan birga premalar so‘zlardan tuzilib, ma‘lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo‘lgani uchun tilshunoslikning ham o‘rganish obyektidir. Parema ana shu 2 jihatni o‘zida birlashtiradi. Premalarning kelib chiqishi, tarixan rivojlanishi va ma‘no xususiyatlarini o‘rganuvchi paremiyalogiya frazeologiya bilan chambarchas bog‘liq. Paremiologiya tilda mavjud bo‘lgan, tugal ma‘noga ega bo‘lgan, sintaktik iboralarni o‘rganadi, frazeologiya esa uning bir qismi sifatida faqat ko‘chma ma‘noli turg‘un birikmalarni o‘rganadi. Shu jihatdan ular o‘zaro farqlanadi. O‘rganish obyektining birligi, ya‘ni bir necha so‘zdan tashkil topgan turg‘un, barqaror birikmalarni tekshirish paremiyalogiya bilan frazeologiyaning o‘xshash, umumiy tomoni hisoblanadi.

Shuni unutmaslik kerakki, maqollar, ularni yaratgan xalqning donoligini o‘zida mujassam etadi, xalq donishmandligi haqidagi yirik bir fan. Davrining va undan keyingi asrlarning buyuk donishmandi, eramizdan oldingi IV asrning yirik faylasufi Aristotel shunday degan edi: “Donishmandlik ba‘zi sabablar va ibtidolar haqidagi fandır. Donishmandlikni, adolat nuqtayi nazaridan ilohiy demoq mumkin va shu bois donishmandlik, birinchi navbatda, tangriga o‘xshaydi...”¹. Hozirgi paytda maqol deganda: “Kundalik nutqda qisqa, turg‘un, ohang jihatdan uyushgan, xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi aks etgan, tugallangan jumla (sodda yoki qo‘shma gap)” tushuniladi. “Maqol - jamiyat “parchasi” ning modelidir. Shu bois uni o‘rganmasdan birorta dunyo jamiyatini tushunishning ma‘nosi yo‘q. “Nutqda muqobillik tamoyiliga ko‘ra ko‘p ma‘noda qo‘llanila oladigan qisqa, nutqda mustahkam o‘rnashgan, ritmik tashkillashgan obrazli nutqqa maqol deyiladi”². Mazkur ta‘rifda ko‘rsatib o‘tilgan belgi va alomatlar – qisqalik, turg‘unlik, ritm, ko‘p ma‘nolilikni ifoda etadi. Shuningdek, maqollar to‘g‘risida ularning xalqning ijtimoiy-tarixiy va turmush tajribalarini

¹ Vagelpohl U. Aristotle’s Rhetoric in the East. The Syriac and Arabic translation and commentary tradition. — BRILL, 2008. — Vol. LXXVI. — 347 p. — (Islamic Philosophy, Theology and Science). — ISBN 978-90-04-16681-3.

² Аникин В.П., Круглов Ю.Г. Русское народное поэтическое творчество.-Л.: 1983, -С.116.

umumlashtirishi ham ta’kidlanadi. Maqolning janr sifatidagi yagonaligi, agar uning tarixiy kelib chiqishi xalq turmushi, tili va san’atining o’ziga xos hodisasi sifatida tahlil etiladigan bo’lsa, yanada oydinlashadi. Ilk maqollar qadim zamonlarda paydo bo’lgan.

“Maqollarning paydo bo’lish sinoatlari ularning mazmunida yashiringan. Maqollarning ko’pchiligi insonlar o’rtasidagi munosabatlar, urf-odatlar maydoniga kirib boradi va shu maydonning ajralmas qismiga aylanadi. Maqollardagi fikrning she’riy ifodasi voqelikning ongsiz-badiiy shaklidir. Maqoldan farqli o’laroq, matal – nutqda emotsional baho uchun mavjud bo’lgan va bir qator o’xshash hayotiy hodisalarga nisbatan muqobillik tamoyiliga ko’ra qo’llaniluvchi umumqabul qilingan obrazli ifodadir. Agar maqol nutqni alohida mazmun, yangi bir butun xulosa bilan mustahkamlaydigan bo’lsa, matal bir tugal fikr (jumla), xulosa ichiga to’laqonli bir bo’lak sifatida kiritiladi”³.

Maqollar olami turli soha mutaxassislari hisoblangan olimlar – tilshunoslar, adabiyoshunoslar, paremiologlar, folklorshunoslar, etnograflarning tadqiqotlar olib borishlari uchun “hosildor maydon” hisoblanadi. Bu tabiiy hol, chunki maqol shaklan ixcham, sodda bo’lishiga qaramay, turli tadqiqot nuqtai nazarlaridan ko’rib chiqilishi mumkin. Maqollar semantik va struktur jihatdan to’la tugallangan matn sifatida tilshunoslikning til haqidagi ancha navqiron sohasi bo’lgan matn lingvistikasining ham diqqatini o’ziga jalb etmoqda. Bir til, hatto o’zaro yaqin bo’lgan va umuman bir-biriga qardosh bo’lmagan tillardagi turli maqollar yagona mantiqiy turga tegishli bo’lishi va bir xil alomatni ko’rsatishi mumkin. Shu bois ular mantiqiy semantika va semiotikaga bevosita tegishli bo’ladi⁴.

Yevropa tilshunosligida maqollar ustida tadqiqotlar olib borgan tilshunos olimlar sirasiga A. Teylor, W. Mieder, S. Arora, W. Esmann, A. Dundis, V. Fleischer, G. Burger, P. Wilson, T. Flonta, B. Wotjak, R. Eckert, R. Hessky, M. Kuusi va boshqalarni kiritish mumkin. Maqollarning har xil xususiyatlari yevropa va ingliz olimlari tomonidan ko’rib chiqilib, turli takliflar berilgan.

O’tgan asr paremiologi A. Teylorning tadqiqot natijalari 120 ta kitob, maqollar, matallar va idiomalarga oid eslatmalarda keltirib o’tilgan.

A. Teylorning “Maqol” nomli klassik tadqiqotini alohida ta’kidlab o’tish kerak. Ilm-fanda kamdan-kam hollarda birorta kitob olimlarning keyingi avlodlariga yuqoridagi monografiya kabi kuchli ta’sir ko’rsatmagan. Kitob Kaliforniyada muallif hali 41 yoshga to’lmaganida nashr etilgan. Ushbu nashr 1931–yilda Garvard universitetida paydo bo’lganida, uning paremiologiyaga kelajakdagi ta’sirini hech kim oldindan ko’ra olmas edi. Morris Palmer Gilli kitobga yuqori baho berib, ingliz maqollariga qiziqish jonlanganini ta’kidlaydi. Sharhning deyarli har bir sahifasida

³ Мадаев О. Халқ оғзаки поэтик ижоди. Т.: «Шарқ», 2001,- Б.89

⁴ Даль В.И. Пословицы русского народа. -М.:1984,-С.37

A. Teylorning dastlabki nazariy takliflaridan tashqari tadqiqotning kelajakdagi jihatlari uchun bir nechta taklif va tavsiyalar berib o‘tiladi. Xalq og‘zaki ijodi sohasidagi ushbu klassik monografiyada A.Teylor paremiologiyaning boy sohasi haqida to‘liq ma‘lumot beradi. Birinchi bo‘lim maqollarning kelib chiqishiga, alohida boblar - maqollar, majoziy maqollar, maqol turlari, variantlari, maqol va adabiyot, kitobiy va mumtoz maqollar ta‘rifi muammolariga bag‘ishlanadi. Maqollarning mazmuniga bag‘ishlangan ikkinchi bo‘limda A.Teylor maqollar, tarixiy maqollar va boshqa mavzularga bag‘ishlangan maqollarda o‘z aksini topgan an‘ana va xurofotlarni tahlil qiladi. Uchinchi bo‘limda maqol uslubiga (metafora, timsollash, parallelizm, ritm va boshqalar) bag‘ishlangan bo‘lib, dialogik maqollar, epigramma maqollar, maqollarning milliy va etnik xususiyatlari, shu bilan birga Yevropa adabiyotidagi maqollarga oid mavzui guruhlar shakllantirilgan. To‘rtinchi bo‘lim 3 faslga bo‘lingan bo‘lib, maqol iboralar, vellerizm va maqollar qiyoslanishining turli jihatlari o‘rganadi. Kitob ko‘plab tillardagi misollar va muhim bibliografik ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan va izohlar bilan boyitilgan.

A. Teylorning monografiyasi dunyo olimlarini paremiologiya sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borishlari uchun keng yo‘l ochib berdi. Jumladan, M. Kuusi Finlyandiyada, Rossiyada G.L.Permyakov, Germaniyada L.Ryurix, Gretsiyada D.Loukatos, Vengriyada V.Voyt, A.V. Shvetsiyada Ruf, Estoniyada A. Krikmann, Polshada Yu.Krijjanovski va ko‘plab amerikalik olimlar: B. Uayting, M.R.Gilli, G. Kunstmann, R. Gente, A. Dundis, S.Arora, P.Seytel, V. Eberxard va boshqa paremiolog olimlar mana shunday olimlar sirasiga kiradi. Mazkur tadqiqotchi olimlar va ularning ko‘plab ilmiy qarashlari uchun A. Teylor nazariyalari asosiy mayoq vazifasini o‘tadi.

Jumladan, A. Krikman o‘zining maqollar semantikasiga bag‘ishlangan tadqiqot ishini oddiy, she‘riy bo‘lmagan tildan ikkinchi darajali, she‘riy tilga o‘tish masalalariga bag‘ishlaydi. Chunonchi, g‘arb olimlari ham maqolga turlicha tavsif va ta‘rif berib o‘tishgan. Masalan, Morris-Braun maqollar haqida yozar ekan, maqolni hayot saboqlari haqidagi hikoyalardan qisqa parchalar sifatida belgilaydi. Ular inson tabiati va ijtimoiy munosabatlar haqidagi muhim g‘oyalarni ifodalovchi madaniy ramziylik bilan to‘ldirilgan bo‘lib, ular ko‘pincha ularning kelib chiqish madaniyatidan ustun turadi. Maqollar badiiy, qisqa, ko‘pincha kulgili va odatda esda qolarli hisoblanadi.

Bekon fikricha, maqollar nasihat, umum e‘tirof etilgan haqiqatni o‘z ichiga olgan mashhur so‘zlardir. Aksariyat maqollar og‘zaki ijoddan kelib chiqqanligi sababli, ular odatda oson esda qolish uchun tuzilgan va avloddan-avlodga o‘tgani sayin o‘zgarib boradi.

Biroq, Mieder fikriga ko‘ra, maqol xalqning qisqa, va barchaga ma‘lum bo‘lgan jumlasini bo‘lib, unda donishmandlik, haqiqat, axloq va an‘anaviy qarashlar majoziy, turg‘un va esda qolarli shaklda avloddan-avlodga o‘tadi⁵.

G‘arb tilshunoslari ham mazkur yo‘nalishni kengroq ochib berish yo‘lida samarali izlanishlar olib bordilar. Bunday olimlar sirasiga nemis paremiologi F. Seylerni kiritish mumkin. Uning qarashlari mashhur “Deutsche Sprichwörterkunde” asarida to‘plangan. Muallifning fikricha, kitob o‘quvchiga xalq maqollari haqida bilim berish va uning o‘ziga xosligini yetkazish, ushbu janrga qiziqqan barcha olimlarni keyingi tadqiqotlarga undashga qaratilgan⁶. Muallifning eng avvalo, aforizm, sentensiya, maqol, matal va iboralar kabi tushunchalarga ta‘rif berishga urinishlari qimmatlidir, muallif maqol va matal o‘rtasidagi munosabatni ochib beradi, matal va maqol obrazlilikini farqlash muammosini tahlil qiladi.

Shu o‘rinda maqollar ustida ko‘p ishlar olib borgan ingliz tilshunosi N.Norriknin ta‘kidlamaslikning iloji yoq. Tilshunos, dunyo olimlarning paremiologiya va maqollar bo‘yicha qilgan sara ishlarini to‘plab, ularni o‘zaro qiyoslab bu soha bo‘yicha aniqroq xulosaga erishgani uning eng katta yutuqlaridandir.

V.Miderning paremiologiya sohasi bo‘yicha qilgan xizmatlarini quyida u yaratgan asarlar orqali ko‘rish mumkin. Jumladan: “International Bibliography of Explanatory Essays on Individual Proverbs and Proverbial Expressions” (1977), “Proverbs in Literature: An International Bibliography” (1978), “The Wisdom of Many: Essays on the Proverb” (1981), “Proverbs Are Never Out of Season: Popular Wisdom in the Modern Age”(1983), “Investigations of Proverbs, Proverbial Expressions, Quotations and Cliches: A Bibliography of Explanatory Essays which Appeared in “Notes and Queries”(1984), Twisted Wisdom: Modern Anti-Proverbs (1999), Proverbs: A Handbook (2004), “Proverbs Speak Louder Than Words”, “Folk Wisdom in Art, Culture, Folklore, History, Literature, and Mass Media” (2008), “Proverbs and the Social Sciences: An Annotated International Bibliography International Bibliography of Paremiology and Phraseology” (2009).

Ingliz folklorshunos olimlaridan biri sifatida R. Honekning maqollar ustida olib borgan chuqur izlanishlariga ham to‘xtalib o‘tamiz.. Honek maqollarning tarixi haqida so‘z yuritib, ularning jamiyatning har bir sohasida faol tarzda foydalanilishini aytadi.

⁵ Крикманн А, Некоторые аспекты семантической неопределенности пословицы. – ПС, с. 62–104; M. Brown The Jamaica handbook of proverbs: with standard English translations and explanations, Island Heart Publishers, 1993.- 196p.; Бэкон Ф. «Афоризмы об истолковании природы и царстве человека», XLI-XLIV; Ланге-Соболева Т.А. проблема раскрытия термина «концептуализация» в современной лингвистике- Наука и образование сегодня, 6 (65), 2021.С 27-32; Mieder W. «Neues von Sisyphus»: Sprichwörtliche Mythen der Antike in moderner Literatur, Medien und Karikaturen. —Wien: Praesens Verlag, 2013

⁶ Зейлер Ф. «Немецкая фразеология», 1922. https://pgu.ru/upload/iblock/c57/Pages-from-CH_2_80-ekz_5.pdf

Honek o‘zining “A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom”⁷ asarida maqollarning o‘ziga xos 7 ta muhim xususiyatini ko‘rsatadi:

- Shaxsiy: maqol faqat shaxsiy tajriba va tushunishga asoslangan subyektiv nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi.

- Formal: bu ilmiy yondashuv bo‘lib, birinchi navbatda tilshunoslik, mantiq va semiotika metodlari va tushunchalaridan maqollarni aniqlash, tasniflash va semiotikadan maqollarni aniqlash, tasniflash va tahlil qilish uchun foydalanadi.

- Diniy: diniy ta‘limot va hikmat matnlarda tahlil qilinadi.

- Badiiy: nasr va she‘riyatdagi maqollar o‘zining adabiy ahamiyati va yozuvchi haqida, o‘z davri va hokazolar haqida ma‘lumot berishi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

- Amaliy: maqolning intellektni tekshirish, psixoterapiya va boshqa sohalarda qo‘llanishi ko‘rib chiqiladi.

- Madaniy: bu maqolga ilmiy yondashuv bo‘lib, uni sotsial-madaniy kontekstdan kelib chiqqan va singdirilgan xalq adabiyotining ko‘p funksiyali xususiyati sifatida qaraydi.

- Kognitiv: bu kognitiv fanga asoslangan ilmiy yondashuv bo‘lib, u odamlarning maqollardan qanday foydalanishi va tushunishini tushuntirishga harakat qiladi⁸.

Paremiologiya alohida yo‘nalish sifatida paydo bo‘lgandan so‘ng, paremiologik tadqiqotlarning ayrim jihatlari bo‘yicha maxsus nashrlar chiqarila boshlandi. Bularga misol qilib dastlab 1978 yilgi nashr qilingan rus paremiologi va folklorshunos olimi G.L.Permiyakovning «Паремнологический сборник», «Паремнологический исследования» (1984) kabi to‘plamlarini misol qilib korsatish mumkin.

O‘zbek tilshunosligida paremiologik birliklar ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borish uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Shu sabab ham paremalarni to‘plash, o‘rganish Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘atit turk” (1071—72) va Gulxaniy “Zarbulmasal” (1960) zamonlaridan to hozirgi kunlarga davom yetib kelmoqda.

Yozuvchi va olimlar tomonidan o‘z asarlarida maqollarni qo‘llashlari, ulardan foydalanishlari, o‘zbek maqollarini to‘plash va o‘rganish tarixi bilan bog‘liq jarayonlar uzoq davrlarga borib taqaladi. Xususan, XI asrning buyuk olimi M. Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘atit turk” asarida turk tili oilasiga kiruvchi xalqlarning maqollaridan keng foydalangan. Bu asar yolg‘iz o‘sha davr tilidagi so‘zlarni izohlovchi kitobgina bo‘lib qolmay, balki shu vaqtda butun Yuqori Chindan tortib Movarounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxoroga qadar cho‘zilgan keng va katta hududda yashagan xalqlar, qabilalar ularning tillari, o‘sha davr xalq og‘zaki ijodiy maqollari to‘g‘risida ham ma‘lumot beruvchi noyob filologik asardir hisoblanadi. Bu o‘rinda adabiyotimiz

⁷ Honek R. A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom. – USA.: Lawrence Erlbaum, 1997. – 277p.

tarixida maqollar asosida yaratilgan asarlar ham mavjudligini ta’kidlab o’tamiz. Masalan, Muhammad Sharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari tarkibida 400 dan ortiq o‘zbek xalq maqollari bor. Yoki, Sulaymonqul Rojiiy o‘zining “Zarbulmasal” asarida 400 dan ortiq maqolni she’riy vaznga solganligi ham e’tiborga loyiq hodisadir Xalq maqollarini ilm obyektini sifatida o‘rganish va to‘plash XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi⁹.

O‘tgan davrlar mobaynida o‘nlab maqollar to‘plamlari chop etildi: “O‘zbekcha otalar so‘zi” (1924), “Maqollar va hikmatli so‘zlar” (1939), “Otalari so‘zi – aqlning ko‘zi”(1947), “O‘zbek xalq maqollari”(1978), “O‘zbek xalq maqollari” (2 jildlik, 1987-88) kabilar shular jumlasidandir. Xalq maqollarini to‘plash va o‘rganishda H.Zaripov, B.Karimov, O.Safarov, D. O‘rayeva, Z.Xusainova, Sh. Shotursun, Sh.Shorahmedov, T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, kabi olimlarning hissasi kattadir.

O‘zbek tilshunosligida paremik janrlar munosabati kompleks tarzda hali hanuz to‘la tadqiq etilmagan. Maqollar mazmuniy bir butunlik nomi ostida xususiy tilshunoslik yutuqlari asosida o‘rganilgan xolos. Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlariga kelsak, M.Z. Sadriddinovning ilmiy ishlari o‘zbek maqol va matallari leksikasi tadqiqiga bag‘ishlangan. Jumladan maqollarga til birligi sifatida yondashish, ya’ni maqollarga turg‘un birikmalar sifatida ta’rif berish oz bo‘lsa-da uning dissertatsiyasida o‘z aksini topgan. Bundan tashqari B. Jo‘rayevaning “Maqollarning lisoniy mavqeyi va ma’noviy uslubiy qo‘llanilishi”¹⁰ mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda olima maqol va ibora, maqol va matal o‘rtasidagi o‘xshash va farqli belgilarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan yoritishga harakat qilgan.

O‘zbek xalq maqollarini to‘plash va nashr qilishda N.G. Ostroumovning xizmati katta. Ko‘plab o‘zbek olimlari ham maqollarni tahlil qilishga, yig‘ishga, ular ustida izlanishlar olib borishga katta e’tibor bermoqdalar. Maqollarning yangi nashrlari bilan shug‘ullangan tadqiqotchilar sifatida B.Sarimsoqov, K.Imomov va X.Abdurahmonovlarning ishlari ham diqqatga loyiq. B.A. Soatov o‘zbek xalq maqollarining janr xususiyatlari va she’riy xususiyatlarini aniqlagan bo‘lsa, X.Sharafiddinov o‘zbek xalq maqollarining tuzilishidagi qofiya va uning funksional-uslubiy xususiyatlariga e’tibor qaratgan va maqolshunoslikka doir 50 dan ortiq ilmiy maqollalar muallifi hamdir. Bundan tashqari, M.R.Galiyeva, E.V.Ivanova, I. Begmuratov, R.A. Latipova, N.E. Abdullayevalarning ilmiy tadqiqotlarida, folklor janriga ayniqsa paremiologiya sohasiga alohida e’tibor bergan holda, o‘z izlanishlarida maqol va matallarni qiyosiy planda ko‘rib chiqishga qaratishgan. O‘zbek xalq maqollari o‘zbek xalqi donishmandligining hosilasi hisoblanadi.

⁹ Adilova F. Sh “Yaxshilik” tushunchasini ifodalovchimaqollar semantikasi.Bitiruv malakaviy ish.-Toshkent.2018. 53b B 7-8

¹⁰Жўраева Б. М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари. Автореферати. Самарқанд – 2019, 17-20 бетлар.

Maqollarni «Hayot qomusi», o‘ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular kishilarning aqlini o‘tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta’sirchan qiladi, hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to‘g‘ri yechishga o‘rgatadi, turmushning jamiki katta-kichik masalalari xususida qimmatli **maslahatlar** beradi:

Onasi maqtagan qizni olma, Yangasi maqtagan qizdan qolma.

Xotinga mol berma, xol ber.

Ogohlantiradi:

Shoshilgan kishining pushaymoni ko‘p.

Shoshgan qiz erga yolchimas

Tanbeh berib shoshma-shosharlik bilan xulosa chiqarmaslikka undaydi:

Cholni ko‘rib buvam dema.

Hisobingni to‘g‘ri qil, Xotiningni o‘g‘ri qilma.

Maqollar mehnatsevarlikni ulug‘laydi:

Ot surinmay yo‘l topmas, Yigit urinmay mol topmas.

Yigitning baxtini mehnat ochar.

Maqollar xalq idealiga to‘g‘ri kelmaydigan yaramas illatlarni tanqid qiladi:

Oxir zamon bo‘lsa, Tog‘a jiyan bilan qozilashar.

Botirdan «botir» chiqsa, otasi bilan olishar.

Ko‘ramizki, maqollarda chuqur mazmun, xalq donoligi, uzoq asrlik turmush tajribasi, tabiat va jamiyat hodisalari, insonlarga xos xatti-harakatlar va ularning oqibatlarini haqidagi bahosi, xulosasi, hayot falsafasi mujassamlashgan.

Xullas, maqollar xalq donoligining qomusi bo‘lib, kishilarni ezgulikka, oliyanoblikka undashi bilan hamma vaqt hayot darsligi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek xalq maqollari xalqimizning ko‘p asrlik tarixi, aql-zakovati va ma’naviyatining yetukligidan nishonadir. Ibratli iboralar, pand-nasihad, yashirin ma’noli so‘zlar orqali xalqimiz insonlarni faqat yaxshilikka da’vat etadi.

Maqol xalq hayoti, orzu-intilishlari va dunyoqarashini ko‘p asrlik tajribalarda sinovdan o‘tkazib aks ettirishi tufayli kundalik turmushimizda katta g‘oyaviy-tarbiyaviy rol o‘ynaydi. Haqiqiy xalq maqollarida xalq ommasi manfaatlarini, ideallari aks etar ekan, maqolga murojaat etgan har bir kishi o‘z xalqi va vataniga iliq mehr bilan qarashga o‘rganadi; adolat, ozodlik, haqiqat, mardlik va bahodirlik, tinchlik va insonparvarlik, do‘stlik va birodarlikka intiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adilova F. Sh “Yaxshilik” tushunchasini ifodalovchimaqollar semantikasi. Bitiruv malakaviy ish.-Toshkent.2018. 53b B 7-8
2. Аникин В.П., Круглов Ю.Г. Русское народное поэтическое творчество.-Л.: 1983, -С.116.

3. Vagelpohl U. Aristotle’s Rhetoric in the East. The Syriac and Arabic translation and commentary tradition. — BRILL, 2008. — Vol. LXXVI. — 347 p. — (Islamic Philosophy, Theology and Science). — ISBN 978-90-04-16681-3.
4. Даль В.И. Пословицы русского народа. -М.:1984,-С.37
5. Жўраева Б. М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари. Автореферати. Самарқанд – 2019, 17-20 бетлар.
6. Зейлер Ф. «Немецкая фразеология», 1922.
https://pgu.ru/upload/iblock/c57/Pages-from-CH._2._80-ekz_5.pdf
7. Крикманн А, Некоторые аспекты семантической неопределенности пословицы. – ПС, с. 62–104;
8. Мадаев О. Халқ оғзаки поэтик ижоди. Т.: «Шарқ», 2001,- Б.89
9. Mirzayev. T va boshqalar. O‘zbek xalq maqollari.-Toshkent «SHARQ» 2005.-B 512
10. Honeck R. A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom. – USA.: Lawrence Erlbaum, 1997. – 277p.